

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>

## NATURAL LANDSCAPES AND ECOLOGICAL TOURISM (IN THE CASE OF JIZZAKH REGION)

**Lola Shukurboevna Sanaeva**

Jizzakh State Pedagogical University  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: [Sanaeva\\_08@gmail.com](mailto:Sanaeva_08@gmail.com)

**Ilkhom Esonovich Karimov**

Jizzakh State Pedagogical University  
Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Natural landscapes, relief, fauna, flora, rivers, Turkestan ridge, recreation areas, ecotourism, cultural heritage sites, means of settlement.

**Received:** 12.12.23

**Accepted:** 14.12.23

**Published:** 16.12.23

**Abstract:** The relief of the Jizzakh region consists of mountains, hills and plains. We see that on the territory of the province there are also 4 high-altitude areas (desert, hill, mountain and pasture), identified by academician K. Zokirov. The southern part of the Jizzakh region is occupied by the spurs of the Turkestan ridge (mountains Zomintog, Molguzar and Chumgar), and the western part is occupied by the eastern part of the Nurata ridge.

## TABIYY LANDSHAFTLAR VA EKOLOGIK TURIZM (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)

**Lola Shukurboevna Sanaeva**

Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Toshkent, O'zbekiston  
E-mail: [Sanaeva\\_08@gmail.com](mailto:Sanaeva_08@gmail.com)

**Ilxom Esonovich Karimov**

Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Tabiiy landshaftlar, relyef, fauna, flora, daryolar, Turkiston tog' tizmasi, rekreatsiya hududlari, ekoturizm, madaniy me'ros obyektlari, joylashtirish vositalari.

**Annotatsiya:** Jizzax viloyati relyefi tog'lik, qir va tekisliklardan iborat. Viloyat hududida akademik Q.Zokirov tomonidan ajratilgan 4 ta balandlik mintaqalarini (cho'l, adir, tog' va yaylov) ham mavjudligini ko'ramiz. Jizzax viloyatining janubiy qismini

Turkiston tizmasining tarmoqlari (Zomintog‘, Molguzar va Chumqor tog‘lari), g‘arbini Nurota tizmasining sharqiy qismi egallagan.

## ПРИРОДНЫЕ ЛАНДШАФТЫ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ ТУРИЗМ (НА ПРИМЕРЕ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ)

**Лола Шукурбоевна Санаева**

*Джизакский государственный педагогический университет*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [Sanaeva\\_08@gmail.com](mailto:Sanaeva_08@gmail.com)*

**Ильхом Эсонович Каримов**

*Джизакский государственный педагогический университет*

*Ташкент, Узбекистан*


### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Природные ландшафты, рельеф, фауна, флора, реки, горный массив Туркестана, зоны отдыха, экотуризм, объекты культурного наследия, средства расселения.

**Аннотация:** Рельеф Джизакской области состоит из гор, холмов и равнин. Мы видим, что на территории области также есть 4 высотных района (пустыня, холм, гора и пастбище), выделенные академиком К.Зокировым. Южную часть Джизакской области занимают отроги Туркестанского хребта (горы Зоминтог, Молгузар и Чумгор), а западную часть — восточную часть Нуратинского хребта.

### KIRISH

Hozirgi vaqtida rivojlanayotgan ko‘pgina mamlakatlarni barqaror rivojlantirish konsepsiyasida ekologik turizimining o‘rni alohida e’tirof etilmoqda. Mutaxassislar xalqaro tog‘ turizmini tog‘li hududlarning rivojlanishida asosiy vosita rolini o‘ynashini tan olmoqdalar. Xalqaro turizm sohasi ekspertlarining ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekiston turizmni tez sur’atlarda rivojlanishi bo‘yicha dunyo mamlakatlari ichida 5 o‘rinda turadi. Respublikamizda ekologik turizmni rivojlantirish nafaqat inson salomatligini tiklashda, balki davlatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlanishdagi o‘rni ham beqiyosdir. Nisbatan ekoturistik imkoniyati yuqori bo‘lgan viloyatlardan biri Jizzax viloyatidir.



Bugungi kunda viloyatning tabiiy landshaftlarini ekoturistik nuqtai nazardan tahlil qilish muhim omillardan hisoblanadi. Chunki hukumatimiz tomonidan Jizzax viloyatida ekoturizmni rivojlantirish borasida sezilarli darajada e'tibor qaratilmoqda [1,2]. Ma'lumki tabiiy landshatlar tarkibiy qismlariga relyef, o'simlik va hayvonot dunyosi va suv kiradi. Shu jihatdan Jizzax viloyati relyefi akademik Q.Zokirov tomonidan ajratilgan 4 ta balandlik mintaqalari (cho'l, adir, tog' va yaylov) shimoli-g'arbdan janubi-sharqga tomon almashinib keladi. Viloyat janubida Turkiston tizmasi va uning tarmoqlari (Zomintog', Molguzar va Chumqor tog'lari), g'arbini Nurota tizmasining sharqiy qismi egallagan. Shimoliy, shimoli-g'arbiy qismi (Mirzacho'l va Qizilqum cho'lining janubi-sharqi) tekislikdan iborat. Jizzax viloyati hududining katta qismi keng tekislikdan iborat bo'lib, yer yuzasi shimal va shimoli-g'arbdan, janub va janubi-sharqqa tomon asta-sekin to'lqinsimon bo'lib ko'tarila boradi. Janubiy chekkalari keskin ko'tarilgan. Viloyatning janubiy qismini Turkiston tog' tizmasi ishg'ol qiladi.

## ASOSIY QISM

M.Xoshimxonovning "O'zbekiston ekologik turizmi" monografiyasida ekoturizmning alohida qo'riqlanadigan tabiiy hududlari, Kitob geologik qo'riqxonasining eko sayyohlik resurslari bilan birga, Jizzax viloyatining alohida qo'riqlanma hududlaridan Zomin milliy tabiat bog'i, uning hududida joylashgan Chortangi darasi, Uch o'choq, Miq qal'asi haqida ma'lumotlarni keltirib o'tgan [3].

Lekin shuni ta'kidlash lozimki, Jizzax viloyatining tabiiy landshaftlari ekoturistik nuqtai nazardan to'laligicha o'rganib chiqilmagan.

Belgilangan maqsadlarga muvofiq quyidagi vazifalar hal qilindi: Jizzax viloyatining tabiiy sharoiti va zamonaviy landshaft xilma-xilligini tahlil qilish; yerdan foydalanishning joriy tarkibi va dinamikasini baholash; viloyat tabiiy resurslarining holatiga atrof-muhitni muhofaza qilishning joriy ta'sirini aniqlash; barqaror rivojlanish uchun tog`li hududlarning ekologik boshqaruvini optimallashtirish strategiyasini ishlab chiqish; Jizzax viloyatining ekologik asoslarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotda Jizzax viloyatining tabiiy landshaftlarida ekoturizm infratuzilmasi rivojlanishini belgilashda yaqin yillarda kutilayotgan o'zgarishlarni hisobga olish va shu orqali turizmning rivojlanishini yahlit infratuzilma sifatida o'rganish metodologiyasi qo'llanildi. Bu borada mutahassislar fikrini o'rgangan holda, kuzatish, qiyoslash, emperik tadqiqot, wsvot tahlil, qiyosiy tahlil hamda ekspert baholash kabi usullari orqali infratuzilmaning tarkibiy qismlari rivojlanishi yo'nalishlarini belgilab berish usuli taklif etilgan.

Tadqiqot ishida Turkiston tog` tizmasi landshaftlarini ekologik turizmni tashkil etish va rivojlantirish nuqtai nazardan o'rganib chiqildi (1-rasm). Ushbu xaritaga turistik infratuzilmalar, madaniy meros ob'ekatlari va boshqa rekreatsiya hududlari kiritib chiqildi (1,2-jadvallar).

### 1-jadval

#### TURKISTON-NUROTA TIZMASI TOG` LANDSHAFTLARINI EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MAQSADIDA RAYONLASHTIRISH KARTA- SXEMASI

O'lka	Provinsiya	viloyat	tuman	Kichik tumanlar
O'rta Osiyo	A. Tyanshan-Pomir	I.Turkiston	1. Chumqortog'	a. Rushon b. Ko'kjar
			2.Molguzar-Zomin	v. Molguzar g. Ravot-Pishag'or d. Zomin
			3.Sangzor-Zominsuv	ye. Sangzor j. Qizilmozor z. Zominsuv
			4. Nurota	i. Nurota-Qo'yotosh k. Osmonsoy l. Ko'kbuloq
			5.G'allaoorol	m. G'allaoorol n. Garasha-Savruq
		II. Nurota	6. G'o'bдин-Qaroqchitog'	o. G'o'bдин p. Qaroqchitog'

**JIZZAX VILOYATI TURKISTON TOG‘ TIZMASIDA MAVJUD EKOTURISTIK  
OB’EKTLAR VA REKREATSIYA XUDUDLARI VA TURISTIK JOYLASHTIRISH  
VOSITALARI**

<b>Davolash-sog‘lomlashtirish va dam olish maskanlari</b>		
<b>№</b>	<b>Davolash-sog‘lomlashtirish maskanlarining nomlari</b>	<b>Davolash-sog‘lomlashtirish maskanlarining joylashgan manzili</b>
1.	“Baxmal” sanatoriysi	Baxmal tumani, Baxmal QFY
2.	“Havotog“ sanatoriysi	Yangiobod tumani, Balandchaqir shaharchasi
<b>Zomin tumani</b>		
3.	“Azim Zomin shifo” sog‘lomlashtirish va dam olish maskani	Qo‘riq massivi
4.	“Zomin ona va bola” sanatoriysi	Qo‘riq massivi
5.	“Plato” sog‘lomlashtirish va dam olish maskani	Duoba QFY
6.	“Zomin-O‘riklisoy” sog‘lomlashtirish va dam olish maskani	Duoba QFY
7.	“NKMK” sog‘lomlashtirish va dam olish maskani	Duoba QFY
8.	“Archazor” sog‘lomlashtirish va dam olish maskani	Duoba QFY
9.	“Zomin” sanatoriysi	Duoba QFY
<b>Bolalar oromgohlari</b>		
<b>№</b>	<b>Bolalar oromgohlarining nomlari</b>	<b>Bolalar oromgohlarining joylashgan manzili</b>
1.	Kamolot	G‘allaorol tumani, Qashqabuloq QFY
<b>Forish tumani</b>		
2.	Koinot	Yomchi qishlog‘i
3.	Mirzacho‘l	Yomchi qishlog‘i
4.	Zangori olov	Kattabog‘don qishlog‘i
5.	Jilgacha	Kattabog‘don qishlog‘i
6.	Tabassum	Kattabog‘don qishlog‘i
7.	Matlubotchi	Kattabog‘don qishlog‘i
<b>Sharof Rashidov tumani</b>		
8.	Sh.Rashidov	Uobsoy qishlog‘i
9.	Enerji	Uobsoy qishlog‘i
10.	Bobur	Uobsoy qishlog‘i
11.	Bo‘ston	Uobsoy qishlog‘i
<b>Zomin tumani</b>		
12.	Lochin	Tuman markazida
13.	“Zomin oromgohi” MChJ	G‘allakor QFY, Qo‘riq qishlog‘i
14.	Ya.Norbekov nomli	G‘allakor QFY, Qo‘riq qishlog‘i
15.	Zomin-Sunrise	Duoba QFY, Tog‘terak qishlog‘i
16.	Aloqachi	Duoba QFY, Yettikeychuv qishlog‘i
17.	“OKMK”	Duoba MFY, Tog‘terak qishlog‘i
18.	Guliston	Duoba MFY, Tog‘terak qishlog‘i

<b>Ziyoratgoh va qadamjolar</b>		
<b>Nº</b>	<b>Ziyoratgoh va qadamjolar nomlari</b>	<b>manzili</b>
<b>G‘allaorol tumani</b>		
1.	“G‘o‘bdun ota” ziyoratgohi	G‘o‘bdin qishlog‘i
2.	“Said Ibn Abu Vaqqos” ziyoratgohi	Avliyo qishlog‘i
3.	“Qozon ota” ziyoratgohi	Xonaqa va G‘o‘bdin qishloqlari orasida
4.	“Sayfin ota” ziyoratgohi	Sayfin qishlog‘i
5.	“Savruq ota” ziyoratgohi	Savruq qishlog‘i
<b>Forish tumani</b>		
6.	“Hazrati Zaynulobiddin” ziyoratgohi	Mojrum qishlog‘i
7.	“Hasan ota” ziyoratgohi	Xasanota qishlog‘i
8.	“Hazrati Eshon xalifa” ziyoratgohi	Andadin qishlog‘i
9.	“Qizuchgan” qadamjosi	Sayyod qishlog‘i
10.	“Jondahor ota” ziyoratgohi	Garasha qishlog‘i
11.	“Narvon ota” ziyoratgohi	Narvon qishlog‘i
12.	“Xo‘ja bog‘bon ota” qadamjosi	Qoratosh qishlog‘i
<b>Sharof Rashidov tumani</b>		
13.	“Cho‘qmozor ota” ziyoratgohi	O‘raqli qishlog‘i
14.	“Malik ota” ziyoratgohi	Sug‘unboy qishlog‘i
15.	“Uch qiz” ziyoratgohi	Uchqiz qishlog‘i
16.	“Qirq Chilton” ziyoratgohi	Sho‘rbel qishlog‘i
17.	“Parpi ota” ziyoratgohi	Yalpoqbosh qishlog‘i
<b>Zomin tuman</b>		
18.	“G‘orbobo” ziyoratgohi	Qultepa qishlog‘i
19.	“Qum ota” ziyoratgohi	Laylakuya qishlog‘i
20.	“Beshbuloq ota” ziyoratgohi	Pishag‘ar qishlog‘i
21.	“Oqtosh ota” ziyoratgohi	Pishag‘ar qishlog‘i
22.	“Xo‘jai Sarob ota” ziyoratgohi	Pishag‘ar qishlog‘i
23.	“Xo‘ja Shohimardon Sherdor” ziyoratgohi	Turkman kishlog‘i
24.	“Qoplon ota” ziyoratgohi	Qovunkesdi va Beshbuloq qishloqlari oralig‘i
25.	“Parpi oyim” ziyoratgohi	Uvol qishlog‘i
26.	“Qoramozor ota” ziyoratgohi	Qoramozor qishlog‘i
27.	“Xo‘roz ota” ziyoratgohi	Turkman kishlog‘i
28.	“Ko‘k to‘nli ota” ziyoratgohi	Tuman markazida
29.	“Xo‘ja Qahhor vali” qadamjosi	Tuman markazida
30.	“Said Burhoniddin qilich” ziyoratgohi	Beshkubi kishlog‘i
31.	“Xo‘ja bandikushod bobo” ziyoratgohi	Jaloyir qishlog‘i
32.	“Archamozor ota” ziyoratgohi	Yettikechuv qishlog‘i
33.	“Balogardon bobo” qadamjosi	Jo‘langar qishlog‘i
34.	“Oqsoq ota” qadamjosi	Uvol qishlog‘i
35.	“Xo‘ja Ko‘ndalang” ziyoratgohi	Qushchi Bolg‘ali qishlog‘i

<b>Yangiobod tumani</b>		
36.	“Xo‘jamushkent ota” ziyyaratgohi	Xo‘jamushkent qishlog‘i
37.	“Changovul ota” ziyyaratgohi	Changovul qishlog‘i
38.	“Rustam ota va Jumaqul ota” ziyyaratgohi	Balandchaqir qishlog‘i
39.	“Saidisoxo‘ja” ziyyaratgohi	Jo‘langar qishlog‘i
40.	“Bo‘tatosh Vali” ziyyaratgohi	Yuqorisarmish qishlog‘i
41.	“Chilmahram ota” ziyyaratgohi	Balandchaqir qishlog‘i
42.	“Ersulaymon bobo” ziyyaratgohi	Jo‘langar qishlog‘i
43.	“Teshiktosh bobo” qadamjosi	Pastksarmich qishlog‘i
44.	“G‘oyib ota” qadamjosi	Yuqorisarmich qishlog‘i
45.	“Ko‘k to‘nli ota” ziyyaratgohi	Mug‘ol qishlog‘i
46.	“Qo‘ltiqaziz” qadamjosi	Balandchaqir qishlog‘i
<b>Baxmal tumani</b>		
47.	“Bog‘imozor” ziyyaratgohi	Mo‘g‘ol qishlog‘i
48.	“O‘samat ota” ziyyaratgohi	O‘samat shahri
49.	“Novqa ota” ziyyaratgohi	Novqa qishlog‘i
50.	“Xo‘ja Ko‘ndalang ota” (Shahid bobo) ziyyaratgohi	Temirqadam qishlog‘i
<b>Tarixiy obidalar</b>		
Nº	Tarixiy obidalarning nomi	Tarixiy obidalarning manzili
1.	“Cho‘kmozorota” – arxeologik joyi, qadimgi qabriston	Yangiobod tumani, Qo‘shqand qishlog‘i
<b>G‘allaorol tumani</b>		
2.	“Sulton Xalil” maqbara qoldiqlari, arxeologik tepalik (XIV a.)	Tuman markazida
3.	Tarixiy qabr usti toshlari	Sayfin qishlog‘i
4.	Arxeologik joylar	Savruq qishlog‘i
5.	Arxeologik joylar	G‘o‘bdin qishlog‘i
6.	“Shayintepa” qo‘rg‘oni (XI-XII a.)	Juma qishlog‘i
7.	“Choytepa” qo‘rg‘oni (XI-XII a.)	Qorag‘uyli qishlog‘i
8.	“Lapaxtepa” qo‘rg‘oni (V-VIII, XV-XVI a.)	Qashqabuloq qishlog‘i
9.	“Gadoytepa” qo‘rg‘oni (V-VIII a.)	Guliston qishlog‘i
<b>Forish tumani</b>		
10.	Arxeologik maydonlar, tarixiy qabr toshlari	Garasha qishlog‘i
11.	“Sultontepa” qo‘rg‘oni (XI-XII a.)	Porasht qishlog‘i
<b>Zomin tumani</b>		
12.	Qobilmozor ziyyoratchilar joyi	Qo‘shintepa qishlog‘i
13.	“Shahriston” qadimgi shahar xarobalari (VII-VIII a.)	Achchi qishlog‘i
14.	“Qultepa” qalasi (II-XII a.)	Qultepa qishlog‘i
<b>Baxmal tumani</b>		
15.	“Malik ajdar” arxeologik manzillar (X-XX a.)	Duvlat qishlog‘i
16.	Ko‘p sonli qo‘rg‘onlar (V-VIII a.)	Muzbuloq qishlog‘i

<b>Tabiat yodgorliklar</b>		
<b>Nº</b>	<b>Tabiat yodgorliklarning nomi</b>	<b>manzili</b>
1.	Paymart g'ori va qatron daraxti	Sharof Rashidov tumani, Paymard qishlog'i
<b>G'allaorol tumani</b>		
2.	"Temur darvoza" yodgorligi	Molguzar va Qo'yotosh tug'lari tutash joyida
3.	"Quytosh" tog'idagi noyob tosh shakllari	Qo'yotosh qishlog'i
4.	Ko'p yillik chinorlar va buloqlar	Avliyo mahallasi
5.	Buloqlar, qalin daraxtzorlar	G'o'bden qishlog'i
6.	Buloqlar, "Sovruqota" qalin daraxtzori	Savruq qishlog'i
7.	"Sayfin ota" bulog'i	Sayfin qishlog'i
<b>Forish tumani</b>		
8.	"Teshiktosh" chillaxonasi	Andagan qishlog'i
9.	1600 yildan ko'p bo'lgan ari inlari	Mojrum qishlog'i
10.	1000 yoshdan ortiq Mojrum archasi	Mojrum qishlog'i
11.	Eramizdan avvalgi I-II asrlardagi qoya rasmlari (tosh bitiklar)	Uxum qishlog'i
12.	Issiq suvli buloqlar, 1000 yillik tut daraxtlari	Qoratosh qishlog'i
13.	Tepaliklar, ko'plab buloqlar, qalin daraxtzorlar	Narvon qishlog'i
14.	"Osmonsov" biogen tarkibli noyob tuzilmali ohaktoshlar	Osmonsov qishlog'i
<b>Zomin tumani</b>		
15.	"Peshag'or" paleontologik g'ori	Bosh Pishag'or
16.	"Uvaldara" tog'li joylari, sharsharalar,	Uvol qishlog'i
17.	Qalin qoraqarag'ayzorlar	Beshkubi qishlog'i
18.	Sog'lomlashtiruvchi buloqlar, 1000 yillik tut daraxtlari	Turkman qishlog'i
19.	Sog'lomlashtiruvchi va shifobaxsh buloqlar	Laylakuya qishlog'i
20.	Archamozor qoraqarag'ayzori	Yettikechuv q.
21.	Miq qal'asi	Yettikechuv q.
22.	Noyob shaklli toshlar	Yettikechuv q.i
23.	2,3 ga hududga ega bo'lgan yashil daraxtzor, "Xo'ja Shoximardan" bulog'i	Turkman qishlog'i
24.	400 yillik shumtol va shifobaxsh buloqlar,	Yettikechuv qishlog'i
25.	"Sharshara" maskani	Duoba QFY
26.	Supa (Suffa) maskani	Duoba QFY
27.	"Sherbulloq" bulog'i	Duoba QFY
28.	"Boboyong'oq" bog'i hududidagi 700 yillik yong'oq	O'rikli qishlog'i
<b>Yangiobod tumani</b>		
29.	600-700 yillik tut daraxtlari	Qo'shqand qishlog'i
30.	"Xo'jamishkent" buloqlari, g'orlar	Xo'jamishkent qishlog'i
<b>Baxmal tumani</b>		
31.	Ko'p yillik chinorlar va buloqlar	Novka qishlog'i
32.	Zomin davlat qo'riqxonasidagi noyob tosh shakllari	"Zomin davlat qo'riqxona"si
33.	"Qirqqiz tosh" ansambili	Muzbulloq qishlog'i
34.	"Tosh kuyov"	Muzbulloq qishlog'i
35.	"Bog'i major" o'rmoni	Mo'g'ol qishlog'i
36.	"Qulsu-Go'ralash" qadimiy dengiz tubi maydoni	Yuqori buloqboshi q.
37.	"Malik ajdar" bulog'i (X a.)	Duvlat qishlog'i

<b>O‘rmon xo‘jaliklari</b>		
<b>Nº</b>	<b>Nomi</b>	<b>Manzili</b>
19.	Baxmal	Baxmal tumani
20.	G‘allaorol	G‘allaorol tumani
21.	Forish	Forish tumani
22.	Zomin	Zomin tumani
23.	Xo‘jamushkent	Yangiobod tumani
<b>Davlat qo‘riqxonalari</b>		
<b>Nº</b>	<b>Nomi</b>	<b>Manzili</b>
1.	Zomin tog‘-archa davlat qo‘riqxonasi	Baxmal va Zomin tumani, Turkiston tizmasining shimoliy yonbag‘ri
2.	Nurota tog‘-yong‘oq davlat qo‘riqxonasi	Forish tumani, Nurota tizmasining shimoliy yonbag‘ri
<b>Davlat milliy tabiat bog‘i</b>		
<b>Nº</b>	<b>Nomi</b>	<b>Manzili</b>
1.	Zomin davlat milliy tabiat bog‘i	Zomin tumani, Turkiston tizmasining shimoliy yonbag‘ri

## **XULOSA**

Jizzax viloyatining tabiiy landshaftlarini ekoturistik nuqtai nazardan kuzatuvlarimiz natijasida quyidagilarni tavsiya etamiz:

- Turkiston tizmasiida vertikal landshaftlarida ekologik turizmini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan nazariyalarni amaliyatga tadbiq qilish uchun hududda turistik firmalarning faoliyatini jadallashtiri;
- Turkiston tog‘larida chet ellik turistlarga xizmat qiladigan va bir qancha xorijiy tillarni mukammal biladigan gidlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish lozim.

- Hududdagi Sangzor va Zominsoy daryo havzalarini xar tomonlama o‘rgangan holda, daryo bo‘ylab sayr qilish, cho‘milish va baliq ovlashni o‘z ichiga olgan, daryo turizmini ham yo‘lga qo‘yish.

- Turkiston tog‘larini relyefini o‘rgangan holda, qoyali joylarda alpenizmni, ochiq ylangli joylarda chang‘i, daryolarning ostonalari kam bo‘lgan joylar qayiqda suzish sport turlarini yo‘lga qo‘yish lozimdir. Bu yo‘llar orqali ham ko‘plab turistlarni jaib qilish imkoniyati paydo bo‘ladi.

- Tog‘larning o‘rtacha balandliklarida tibbiyot xizmatini yo‘lga qo‘yish lozim. Tog‘ning yuqori balandliklariga harakatlanuvchi turistlarni qon bosimi bilan bog‘liq kasalliklar bezovta qiladigan bo‘lsa, tekshiruvdan o‘tkazilib, tibbiy tekshirish natijasiga ko‘ra yuqoriga harakatlanishi haqida yakuniy xulosa beriladi.

- Sayyohatga boriladigan joylarini rasmlari va ular haqida qisqacha izohlarni o‘z ichiga atributlar tayyorlash.

- Hududdagi ko‘plab g‘orlarga ham sayyohatlarni tashkil qilish rejalarini ishlab chiqish. G‘orlarga sayyohlar tashrif buyurgan vaqtida, g‘orning xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirib boruvchi mutaxasislarni jalb qilish lozimdir.

- Hududdagi buloqlar va ularning xususiyatlari bilan sayyohlarni tanishtirish. Ayrim buloqlarning atrofi obodonlashtirilgan bo‘lib, turistlarning kelib dam olishlari uchun barcha qulayliklar bo‘lsa, ayrim buloq atroflari esa e’tiborsizlik tufayli tashlandiq holga kelib qolgan. Bu buloqlar atrofida obodonlashtish ishlari olib borib va dam oluvchilar uchun sharoitlar yaratilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

- Tog‘li hududlardagi ziyoratgoh joylarni sxematik kartasi tuzib, ushbu yo‘nalish bo‘ylab turistlarning xarakatlanish marshrutlarini belgilash lozimdir.

- Turkiston tog‘ tizmasi hududida Baxmal Molguzar, Nurota davlat milliy bog‘larini barpo qilish;

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida Turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘sishimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-5611сонли framoni va ushbu farmonda tasdiqlangan 2019 — 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiysi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 noyabrdagi 2020- 2022 yillarda “Jizzax viloyatining Zomin tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № 698-son qarori.

3. M.R. G‘o‘dalov, O.L. Muxamedov. Tabiatni muhofaza qilish – muammo va yechimlar.monografiya. “Ziyo nashr-matbaa”, 2021.

4. Gudalov, M. R. . (2023). Climate changes in the aydar-arnasoy lake system and its surroundings. Journal of Geography and Natural Resources, 3(06), 44–50.